



MAMLAKATDA INNOVATSION KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Matkuliyyeva Sanobar Ismailovna

Ma'mun Universiteti nodavlat ta'lim muassasasi

ORCID: 0000-0001-7280-9982

Mamajonova Saida Vaxabjanovna

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0002-0139-9255

saidamamajonova76@gmail.com

Annotatsiya. Klaster strategiyalarini amalga oshirish va hududiy-innovatsion tarmoqlarni shakllantirish transmilliy o'zaro aloqalarni rivojlantirish va hududlararo tarmoq tuzilmalarini shakllantirishga imkon berdi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada innovatsion klasterlar salohiyatidan foydalanishning iqtisodiy mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar. innovatsiya, investitsiya, iqtisodiy salohiyat, klaster, innovatsion infratuzilma, davlat, innovatsion mahsulot, innovatsion klasterlar.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ В СТРАНЕ

Маткулиева Санобар Исмаиловна

Негосударственное образовательное

высшее учебное заведение Университет Мамун

Мамажонова Саида Вахабжановна

Гулистанский государственный университет

Аннотация. Реализация кластерных стратегий и формирование территориально-инновационных сетей позволили развивать транснациональные взаимодействия и формировать межрегиональные сетевые структуры. Исходя из этого, в данной статье раскрыто экономическое содержание использования потенциала инновационных кластеров.

Ключевые слова: инноватсия, инвестиционный, экономический потенциал, кластер, инновационная инфраструктура, государство, инновационный продукт, инновационные кластеры.

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATION CLUSTERS IN THE COUNTRY

Matkulieva Sanobar Ismailovna

Non-governmental educational institution of

Higher education Mamun University

Mamazhonova Saida Vakhabzhanovna

Gulistan State University

Abstract. The implementation of cluster strategies and the formation of territorial innovation networks have allowed the development of transnational interactions and the formation of interregional network structures. Based on this, this article reveals the economic content of using the potential of innovation clusters.

Keywords: innovation, investment, economic potential, cluster, innovative infrastructure, government, innovative product, innovative clusters.

Kirish.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir qator o'zaro bog'liq jihatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, har qanday mamlakatda klasterlarning yaratilishi kichik biznes va yirik korxonalarining innovatsion rivojlanishi uchun kuchli turtki beradi.

Ikkinchidan, innovatsion klasterlar rivojlanishi mavjud sanoat kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot natijalarini intensiv ravishda joriy qilish, yirik korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjiriga kirish uchun yangi kichik va o'rta korxonalar davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etish hisobiga amalga oshirishga imkon beradi.

Uchinchidan, zamonaviy iqtisodiyotda klasterli yondashuv hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va tashkilotlarning raqobatbardoshlik hamda innovatsion faollik darajasini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi, chunki, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi tajribasi iqtisodiyotni innovatsion jihatdan rivojlantirishda klasterlashtirish amaliyotining o'rnini muhim ekanligidan dalolat beradi, yangicha yondashuvlardan foydalanishni ko'zda tutadi.

To'rtinchidan, investitsion muhitni shakllantirish jarayonlari va shu jumladan iste'molga turli tabiatga ega bo'lgan omillar ta'sir qiladi, innovatsiya va innovatsiyalarning bu o'zaro ta'sir sohasini aniqlashga imkon beradigan uslubiy vositalarni ishlab chiqish va asoslashning asosiy omili sifatida maydonga chiqadi.

Beshinchidan, davlat iqtisodiy siyosatining aniq belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirilayotgan innovatsion salohiyatning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, innovatsion rivojlanishga va innovatsion jarayonlarni olib borish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Klasterlar innovatsion tizim sifatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Klasterli yondashuv innovatsion ilmiy-texnik yo'nalishlarning paydo bo'lishini rag'batlantirish, ularni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan bir qatorda, ta'lim, fan va biznes sohasini bilvosita qo'llab-quvvatlash orqali bilimlar iqtisodiyoti asoslarini yaratishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Ayni chog'da, innovatsion klasterlarni shakllantirish ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida qaralishi mumkin.

Raqobat ustunliklari asosida yuqori ulushga ega bo'lgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga erishgan, ilmiy markaz va universitetlarning jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlay olgan klasterlar katta natijalarni qo'lga kiritadilar (Gontar and other, 2019).

Braziliyada bo'lib o'tgan innovatsion siyosat va texnologiyalar bo'yicha xalqaro konferentsiya doirasida innovatsion yo'naltirilgan va industrial klasterlarning o'zaro ta'sirining turli ko'rinishlarini mujassamlashtirgan innovatsion klasterlarning tipologiyasi taklif qilindi (Redaktion, 2000).

Mahalliy tadqiqotchilardan M. Samadqulov ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimining asosiy sub'yektlari, ularning o'zaro ta'sir aloqalari aks ettirilgan, ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimi uchun ustqurma hisoblanuvchi davlat alohida ajratib ko'rsatiladi. (Samadqulov, 2023). Taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsiyalar borasidagi davlat siyosatida o'ziga xos yangicha jihatlar shakllanishi bo'yicha Jarkova o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tadi (Kahn, 2018).

Klaster strategiyalarini amalga oshirish va hududiy-innovatsion tarmoqlarni shakllantirish transmilliy o'zaro aloqalarni rivojlantirish va hududlararo tarmoq tuzilmalarini shakllantirishga imkon berdi. Hududiy tavsifga ega ekanligi borasida tadqiqotchi Kulakovning qarashlari real iqtisodiy voqelikka bir muncha mos keladi (Stojanov, Kulakov, 2017).

Umuman olganda tadqiqotchilar tomonidan mamlakatimizda innovatsion klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganish borasida keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mazkur tushunchani ilmiy bilishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning asosiy kontseptsiyasini innovatsion klasterlarni mazmun-mohiyatini ochib berishni tashkil qiladi. Tadqiqot kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda, innovatsion salohiyat darajasining talqini borasida turli mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning farqlovchi va o'xshash jihatlari alohida guruhlariga ajratilgan holda, aholi turmush darajasi borasida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Maqolada ilgari surilgan mualliflik yondashuvlari va qarashlarini asoslash maqsadida ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik, umumlashtirish, o'zaro taqqoslash kabi usullaridan keng foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2017 yil dagi 33,5 foizdan 2030 yilda 40 foiz oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2030 yilga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.


Jalb etilayotgan xorijiy va ichki investitsiyalar faoliyat yuritayotgan ustuvor tarmoqlardagi korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish va raqobatdoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishini ta'minlashi zarur.

Har qanday mamlakatda klasterlarning yaratilishi kichik biznes va yirik korxonalarining innovatsion rivojlanishi uchun kuchli turtki beradi. Shu nuqtayi-nazardan kelib chiqqan holda, hozirgi murakkab sharoitda respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish uchun "...klasterlar faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerak" (Mirziyoev, 2018). Sanoatni klasterlashtirishda innovatsion yondashuvni amaliyotga joriy qilish, ya'ni, innovatsion klasterlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion klasterlar rivojlanishi mavjud sanoat kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot natijalarini intensiv ravishda joriy qilish, yirik korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjiriga kirish uchun yangi kichik va o'rta korxonalar davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etish hisobiga amalga oshiriladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda klasterli yondashuv hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va tashkilotlarning raqobatbardoshlik hamda innovatsion faollik darajasini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi, chunonchi, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi tajribasi haqiqatdan ham, iqtisodiyotni innovatsion jihatdan rivojlantirishda klasterlashtirish amaliyotining o'rni muhim ekanligidan dalolat beradi (Kostyuchenko, 2019).

Fikrimizcha, *innovatsion-sanoat klasteri bu* – muayyan bir hududda geografik jihatdan mahalliylashgan, bir-birini to'ldiruvchi, raqobatdosh iqtisodiy sub'yektlar (shu jumladan, ta'minotchi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar) majmuidir. Bunda klaster sub'yektlari o'zaro, shuningdek, davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan innovatsion-sanoatni yoyish borasida qulay muhit yaratish, shuningdek, klaster sub'yektlari, hududlar va milliy iqtisodiyotning innovatsion faolligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida birlashadilar.

Innovatsion-sanoat klasterining mazmun-mohiyati, amal qilish tamoyillari va qonuniyatlarini tadqiq qilish natijalari asosida bizning fikrimizcha, innovatsion klasterlarni rivojlantirish modeli quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion-sanoat klasteri modeli (Samadqulov, 2023)

Taklif etilayotgan model klasterning tarkibiy tuzilishi va uning sub'yektlari hamda infratuzilma unsurlari o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga, bu esa, o'z navbatida, klaster strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu modeldan klasterlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotchilar tomonidan turmush darajasi tushunchasini aniqlashtirish borasida ilgari surilgan ta'rif va yondashuvlarning tahlili innovatsion klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moddiy farovonlik unsurlari emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ne'matlar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bir qator xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida innovatsion klasterlar bilan birga investitsion salohiyat bilan bir o'rinda qo'llaniladi.

Klasterni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad, muayyan bir iqtisodiy natija-raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishishdan iboratdir, bu, o'z navbatida, alohida olingan tashkilot samaradorligini oshirishga va umumiy tarzda iqtisodiy taraqqiyotning tezlashishiga olib keladi. *Klaster modelini joriy etishning asosiy vazifasi* - tadbirkorlarning psixologiyasini o'zgartirish, umumiy iqtisodiy manfaatlar doirasida barcha klaster ishtirokchilarining halol, ochiq va o'zaro manfaatli hamkorligining o'ziga xos imkoniyatlarini tushunib etishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Umuman olganda, innovatsion-sanoat klasterlarining rivojlanishi muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi. Bular:

- barcha klaster ishtirokchilarining moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish, tashqaridan investitsiyalarni jalb qilish, grantlar shaklida moliyalashtiriladigan loyihalar tanlovlarida birgalikda ishtirok etish, kredit resurslarini olish kafolatlarini ta'minlash uchun moliyaviy imkoniyatlarni birlashtirish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;


- tarmoqning innovatsion salohiyatini oshirish;

- fan va ta'limning klaster tashkilotlari va hokimiyat idoralari bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish orqali tadqiqot natijalarini hududiy sanoat siyosatiga joriy etish jarayonlarini tezlashtirish;

- sinergiya samarasi va sifat, logistika, axborot texnologiyalari borasidagi yondashuvlarni bir xillashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va fan sig'imli mahsulotlar sifatini yaxshilash;
- ta'minotchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish;
- yangi tashkilotlarni rag'batlantirish;
- yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini ko'paytirish, import o'rnini bosishni kengaytirish;
- mahalliy hokimiyat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish darajasida klaster ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qila olishlariga erishish;
- hududda bandlik darajasini oshirish;
- klaster ishtirokchilari o'rtasida mutlaqo yangicha tartibdagi odob-axloq, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarning paydo bo'lishi, yangicha fikrlash tarzini shakllanishi;
- klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- hududning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy ravnaqini ta'minlash.

Klasterlar innovatsion tizim sifatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Klasterli yondashuv innovatsion ilmiy-texnik yo'nalishlarning paydo bo'lishini rag'batlantirish, ularni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan bir qatorda, ta'lim, fan va biznes sohasini bilvosita qo'llab-quvvatlash orqali bilimlar iqtisodiyoti asoslarini yaratishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Ayni chog'da, innovatsion klasterlarni shakllantirish ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida qaralishi mumkin.

Innovatsion klasterlarning boshqa iqtisodiy birlashmalardan farqi shundaki, klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar o'zlarining yuridik maqomini saqlagan holda, to'lig'icha bir-birlari bilan qo'shilmaydilar, ular shunchaki, klasterni tashkil etuvchi va undan tashqarida joylashgan boshqa korxonalar bilan birgalikda yaqindan hamkorlik qilishga imkon beruvchi o'zaro ta'sir mexanizmini yaratadilar.



2-rasm. Innovatsion klaster tuzilmasi (Gontar, 2019)

Yuqorida bildirilgan qarashlar borasida deyarli barcha tadqiqotchilar yakdil ekanliklarini ko'rish mumkin.

fan va ta'lim, infratuzilma tashkilotlari, yirik korxonalar, kichik va o'rta biznesga mansub xo'jalik yuritish sub'yektlaridan tarkib topgan va o'zining ichki tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish lozim.

Braziliyada bo'lib o'tgan innovatsion siyosat va texnologiyalar bo'yicha xalqaro konferentsiya doirasida innovatsion yo'naltirilgan va industrial klasterlarning o'zaro ta'sirining turli ko'rinishlarini mujassamlashtirgan innovatsion klasterlarning tipologiyasi taklif qilindi (o'zaro bog'liq yoki faoliyat doirasi qisqartirilgan klaster, sanoat klasteri, industrial-innovatsion klaster, innovatsiyalarga yo'naltirilgan klaster, innovatsiyalarni yoqlovchi klaster).

Ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion munosabat sub'yektlarining funksiyalari
(Samadqulov,2023)

Ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion munosabat sub'yektlari	Innovatsion munosabat sub'yekti funksiyalari
Davlat	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni bashoratlash; – ilmiy-texnik taraqqiyot bashoratlari asosida ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish; – ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, me'yoriy-huquqiy ta'minotini yo'lga qo'yish; – innovatsion guruhlar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoit va mexanizmlarini yaratish; – innovatsion infratuzilma sub'yektlarini rivojlantirish; – ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish
Ilmiy-texnikaviy tadbirkorlik (kichik, o'rta va yirik biznes korxonalari)	<ul style="list-style-type: none"> – innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarga talab (ehtiyoj)ni shakllantirish; – innovatsion klaster sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijalari (innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar)ni tijoratlashtirish (joriy etish)
Innovatsion infratuzilma sub'yektlari	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimida innovatsion faoliyatning rivojlanishga ko'maklashish;
Ilmiy-texnik parklar	<ul style="list-style-type: none"> – texnopark rezidentlari bo'lgan ilmiy-texnik tad-birkorlarga innovatsiyalarni izlab topish (ishlab chiqish), ularni amalda joriy etish va tijoratlashtirish borasida tegishli shart-sharoitlarni yaratib berish; – ko'char va ko'chmas mulkni, shu jumladan turli funk-sional maqsadlardagi binolarni ijaraga berish va hokazo;
Texnologiyalar transferi markazlari	<ul style="list-style-type: none"> – innovatsiyalarni yaratish sohasidan ulardan amalda foydalanish sohasiga o'tkazilishini ta'minlash;
Venchur fondlari	<ul style="list-style-type: none"> – innovatsiyalarni yaratish va ularni joriy etish sohasida investitsion faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish;
Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy-texnik tadbirkorlarning innovatsion texno-logiyalar va mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish; – istiqbolda ilmiy-texnik tadbirkorlarning kadr-larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish borasida muta-xassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish;
Akademik va tarmoq institutlari	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy-texnik tadbirkorlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tegishli fan sohasi va sanoat yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish; – ilmiy-texnik taraqqiyotning tubdan yangi yo'l va yo'nalishlarini aniqlashtirish;
Korxonalarining konstruktorlik byurolari va ilmiy-texnik laboratoriyalari	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy-texnik tadbirkorlarning innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan fan sohasi va sohaga bog'liqligiga muvofiq, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanish; – yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish, mavjud texnologiya va mahsulotlarni modernizatsiya qilish; – innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlovchi konstruktorlik va shunga o'xshash boshqa hujjatlarni ishlab chiqish;
Ixtirochi va ratsionalizatorlar	<ul style="list-style-type: none"> – mavjud kashfiyotlar asosida texnik yangiliklarni yaratish, mavjud qurilmalarni takomillashtirish yoki yangi foydali qurilmalarni yaratish maqsadida ularni birlashtirish.

Bugungi kunda, taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsiyalar borasidagi davlat siyosatida o'ziga xos yangicha jihatlar shakllandi va ushbu jihatlar eng avvalo, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– innovatsion siyosatning asosiy mazmuni barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning innovatsion faoliyatini ixtisoslashtirilgan bilim tarmoqlarini yaratishga qaratilgan klaster strategiyalarini shakllantirish orqali faollashtirish hisoblanadi;

–hududlararo innovatsion hamkorlikning tabiati ham o‘zgarib bormoqda. Xususan, klaster strategiyalarini amalga oshirish va hududiy-innovatsion tarmoqlarni shakllantirish transmilliy o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va hududlararo tarmoq tuzilmalarini shakllantirishga imkon berdi.

Innovatsion klasterga birlashtirilgan ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimining sub’yektlarini ko‘rib chiqish borasidagi bunday yondashuv innovatsiyalar hayot tsiklining barcha bosqichlarida resurslarni amaldagi mavjud mahsulotlardan farqli, yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan foydali natijalarga aylantirish jarayonidagi faoliyatni aks ettiruvchi, innovatsion munosabatlar sub’yektlarining funktsiyalarini aniqlashtirishga imkon beradi (1-jadval).

Respublikada innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes va davlatning faol hamkorligini ta‘minlash, milliy innovatsion infratuzilmani yaratish orqali klaster siyosatini amalga oshirish lozim.

Xorijiy tadqiqotchilarning innovatsion klasterlarning rivojlanishi borasida qo‘llaydigan ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish ular ko‘pincha ko‘rsatkichlarning miqdoriy jihatlariga emas, aksincha sifat bilan bog‘liq qirralariga katta e‘tibor qaratishlarini ko‘rsatadi, bunda erkinlik, baxtlilik, ekologik omillar, sog‘liqni saqlash va innovatsiya kabi sifat ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan o‘rganishlar innovatsion klasterlar kabi murakkab va ko‘p o‘lchovli kategoriyani tavsiflashda muayyan bir ko‘rsatkichlar majmui bilan cheklanib bo‘lmashligini ko‘rsatadi. Hududlarda investitsion muhitni shakllantirish borasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarning tavsifi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, innovatsion klasterlar tavsiflovchi ko‘rsatkichlar farqlanadi.

O‘rganish natijalari ilmiy jihatdan tadqiq qilgan mutaxassis va olimlar innovatsion klasterlar aholining iste‘mol ne‘matlari bilan ta‘minlanganlik holati, aholining iqtisodiy ahvoli va moddiy imkoniyatlari, iste‘mol tavsifi va iste‘mol qilinayotgan ne‘matlar miqdori kabilar ta‘sir qiluvchi omillari borasida yaxlit qarashlarni ilgari suradilar.

Ilmiy-texnik tadbirkorlikni innovatsion faoliyat sub’yektlarini o‘z ichiga olgan tizim sifatida ko‘rib chiqish strategik boshqaruvni amalga oshirish jarayonida hokimiyat organlari, innovatsion infratuzilma sub’yektlari, yirik kompaniyalar, o‘rta va kichik biznes sub’yektlari, ilmiy va ta‘lim muassasalarining o‘rta va uzoq muddatli muvofiqlashtirilgan qarashlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Tahlillarimiz innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes va davlatning faol hamkorligini ta‘minlash, milliy innovatsion infratuzilmani yaratish orqali klaster siyosatini amalga oshirish imkoniyatlari va ko‘lamiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun innovatsiyalar rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratishni quyidagilar orqali chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish taklif qilinadi:

- yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksportini ta‘minlash;
- kichik va o‘rta korxonalar sonining ko‘payishini rag‘batlantirish;
- iqtisodiyotning innovatsion sohasi jadal rivojlanishini ta‘minlash;
- iqtisodiyot ehtiyojlari uchun kadrlar tayorlash tizimining samaradorligini oshirish;
- milliy va chet el investitsiyalar hajmining oshishini ta‘minlash;
- klasterga asoslangan hududlar rivojlanishi rag‘batlantirish.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 4. – C. 12-21.

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 2. – C. 5-14.

Gontar N. V., Gaishun E. S., Sapozhnikova A. G. (2019) *Technological innovations in the proactive modernization strategy of a construction company (by the example of Tandem group of companies)* //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, – T. 698. – №. 7. – C. 077035.

Kahn K.B. (2018) *Understanding innovation* //Business Horizons. – T. 61. – №. 3. – C. 453-460.

Mirziyoyev Sh. (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.* // Xalq so'zi. 2018 yil 29 dekabr.

Redaktion T. (2000) *4th International Conference on Technology Policy and Innovation: Curitiba, Brazil, August 28-31, 2000* //TATuP-Zeitschrift für Technikfolgenabschätzung in Theorie und Praxis. –T. 9. – №. 1. – C. 126-126.

Samadqulov M.I. (2023) *Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.* Toshkent.

Stojanov G., Kulakov A. (ed). (2017) *ICT Innovations 2016: Cognitive Functions and Next Generation ICT Systems.* – Springer, – T. 665.

Гонтарь, Н.В. (2019) *Бизнес и государство в развитии трансграничной кластеризации.* / Н.Гонтарь. // Проблемы теории и практики управления. – № 1. – С. 55–61.

Костюченко Е.А. (2019) *Теоретические и методические основы кластеризации нефтехимического комплекса Витебской области: монография.* / Е.А. Костюченко, В.Л. Ключня. – Новополоцк: Полоц. гос. ун-т, – С.3.